



QUTLIBEKA RAHIMBOYEVA SHE'RIYATIDA FOLKLOR AN'ANALARI

Bozorova E'zoza Baxriddin qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universitetining 1-kurs
tayanch doktoranti*

E-pochta: bozorovaezoza56@gmail.com

Abstrakt. Mazkur maqolada Qutlibeka Rahimboyeva she'riyatida folklor an'analari ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan. Bir qancha she'rlari o'rganilgan va tahlil qilingan. Lirik "men" ruhiyatini ochishda folklor obrazlari va his-tuyg'u mutanosibliigi masalasiga e'tibor qaratilgan. Shoiraning an'anaga yondashuv usuli, ijodiy mahorati xususida mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek folklori, an'ana, tafakkur, yozma adabiyot, she'riyat, obraz, ohang, doston, talmeh.

Abstract. The article discusses the importance of folklore traditions in Qutlibeka Rahimboyeva's poetry. Several of her poems have been studied and analyzed. In the opening of the psyche of the lyrical self, attention is paid to the question of folklore images and emotional balance. Comments are given on the poetess' approach to tradition, creative skills.

Keywords: uzbek folklore, tradition, thought, written literature, poetry, image, melody, epic, talmeh.

Kirish. Har bir millatning turmush tarzi, orzu- umidlari, dunyoqarashi va qadriyatlarining uning og'zaki ijodida namoyon bo'ladi. Ushbu tafakkur mahsuli bejizga folklor, ya'ni "xalq donoligi" deb nom olmagan. Hali yozma adabiyot vujudga kelmasdan, insoniyat quvvai hofizasida yashab kelgan og'zaki ijodiyotni bebaho xazinaga qiyoslash mumkin. O'zbek folklori ham necha ming yillik tarixdan so'zlovchi, ajdodlar sabog'idan dars beruvchi bilimlar jamlanmasidir. "Yozma adabiyotdagi qanchadan qancha nodir iboralar, quyma ifodalar, poetik obraz va tasvir usullari bevosita folklor asarlari zaminida paydo bo'lgan" [Ashurova 2008, 14]. Mumtoz adabiyotimiz vakillari, xususan, Alisher Navoiy xalqning bu merosidan doimo ta'sirlangan. Shuning uchun "Muhokamat ul-lug'atayn", "Majolis un-nafois" va "Mezon ul-avzon" asarlarida xalq ijodiyoti masalalarini yoritgan, qo'shiqlarini tasnif qilgan, ularning muhim xususiyatlarini bayon etgan. O'zi ham xalq qo'shiqlari tarzida she'rlar bitgan. Qolaversa, "Xamsa" asariga kirgan dostonlardagi xayoliy hikoyalar, afsonalar, dev, ajdaholar bilan pahlavonlarning olishuvi kabi tasvirlar Navoiyning bu tafakkur xazinasiga bo'lgan cheksiz muhabbatini ko'rsatadi [Mallayev 1974, 23].





Folklor asarlari hozirgi o'zbek adabiyoti uchun ham tuganmas ilhom manbai bo'lib kelmoqda.

Asosiy qism. Xalq og'zaki ijodi an'alariga bog'langan Qutlibeka Rahimboyeva she'riyati o'zbekona xarakter va milliy madaniyatni aks ettirgani uchun muhim ahamiyatga ega. Adabiyotshunos M.Qo'chqorova shoira ijodi xususida shunday deydi: "...Qutlibeka she'riyati ikkita katta o'zandan oziqlanadi. Bularning birinchisi, o'zbek zamonaviy she'riyati bo'lsa, ikkinchisi, xalq og'zaki ijodidir. Shoira lirikasida xalq ohanglari nihoyatda mahorat bilan sintez qilingan" [Qutlibeka 2023, 7]. Darhaqiqat, Qutlibeka Rahimboyevaning folklor asarlariga, ayniqsa, xalq dostonlariga mehri baland. Buni quyidagi she'riy parchalar bilan izohlash mumkin:

*Ko'z yosh bilan kelar haqiqiy shodlik,
Yig'lab quvonaman, xalqim, baxtingdan.*

Go'ro'g'li ko'rinar har bitta otlig,

Quyoshlik izlayman tola yoqtingdan [Qutlibeka 2002, 4].

Boshqa she'rida esa:

*"Hazrati Xizrdan o'ng yo'l so'rasam,
Go'ro'g'li sultondan duldul so'rasam,
Susambil so'rasam, Jambil so'rasam,*

Darmon toparmanmi dardlaringizga [Qutlibeka 2012, 105]?" –

misralari keltirilgan. Parchalardagi Go'ro'g'li obrazi shu nomdagi turkum dostonlarning asosiy qahramoni hisoblanadi. U "o'zbek xalqining mifo-epik tarjimai holi, badiiy holatdagi tarixiy xotirasidir" [Turdimov 2011, 4]. Duldul ma'nosida Go'ro'g'lining G'irko'k oti nazarda tutilgan. Hazrati Xizr – xalq tasavvuridagi qadimiy mifologik obraz sifatida baxshilarning ustoz, boshqa epik qahramonlarning ham piri bo'lgan [Eshonqulov 2019, 76]. Susambil – ertakdagi, Jambil – dostondagi joy nomi. Shoira keltirilgan birinchi parchada vatanning ot mingan har o'g'lonini Go'ro'g'lidek ko'rib faxrlanadi. Bandda "Toshhovuz o'zbeklari shevasidagi "yoqti" so'zi "yorug'lik" ma'nosini ifodalagan [Qutlibeka 2023, 12]". Ikkinchi parchada esa lirik subyekt dardga darmon topish uchun Xizrdan yo'l, Go'ro'g'lidan ot hamda Susambil va Jambil makonlarini so'rashga shay turibdi. Yana bir she'rida lirik "men" o'zini "Alpomish" dostoniga o'xshatadi:

*Qo'rqoq so'zlarining tilini kesgan
Dunyoda eng botir so'zliksan, denglar.*





Dostonsan – bag'rida Alpomish o'sgan,

Oybarchin singari qizlikdan, denglar [Qutlibeka 2002, 28].

Bu tashbehdan mohiyat shuki, “Alpomishning tug'ilishi haosning kosmosga aylanishi, tartibsizliklarga tartib berilishi, parokandalikning birlashishi, quvvatning jam bo'lishi, ezgu adolatning tantana qilishidir[Eshonqulov 2019, 69]”. Lirik qahramon yurtni ozod ko'rmoq niyatida yashaydi. Shu sababli she'rni:

“Lekin o'zin sevib, qadrlamasa

Ozod yashamaydi birorta millat [Qutlibeka 2002, 28]!” –

degan hukm bilan yakunlaydi. Shoira “Bu ne kundir” she'rida erksizlikka yem bo'lmaslik uchun xayolning ichiga berkinmoqchi bo'ladi:

Xayolimda kuchliman g'oyat,

Sig'indidir haqorat, xo'rlik.

Yosumanmas birorta g'oya,

Dev bo'lolmas birorta zo'rlik [Qutlibeka 1997, 6].

E'tiborimizni bandning so'nggi ikki misrasiga qaratamiz. Nega birorta g'oya yosuman emas? Nima uchun birorta zo'rlik dev bo'lolmaydi? Chunki “Yosuman – folklor va yozma adabiyotda makkorlik ramzi bo'lgan salbiy personaj. U odatda aldov, hiyla bilan pok insonlarning hayotiga zomin bo'ladi. Masalan, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida yengilmas Farhodni hiyla bilan behush qilib, Xisrav huzuriga keltiradi. Yosuman afsona, ertak va dostonlarda jodugar, ayyor, makkor, hiylagar kampir nomlari bilan ham yuritiladi [Ensiklopediya, 51]”. “Devning kasallik va o'lim sifatida tasvirlanishi ertak va dostonlarimizda ko'p uchraydi [Eshonqulov 1996, 36]: “Pahlavon Rustam” ertagida devlar Nodirshoh va odamlarning ko'zlarini ko'r qilib g'orga qamab qo'yadi [Ertak 1991,8]”. Xalq og'zaki ijodidan yaxshi xabardor bo'lgan shoira bu obrazlardan mohirlik bilan foydalangan. Lirik qahramon xayolidagi birorta g'oyada yosuman, ya'ni aldov yo'q. Undagi birorta zo'rlik esa hech kimga ofat olib kelmaydi.

Qutlibekaning “Ertakdan so'ng” turkumidagi “O'lis sadolar” she'ri ham xalqona ruhda yozilgan. Unga “*Sayyoh yigit bilan donishmand ona qadim ertaklardan chiqib, so'ylashib turgan payti* [Qutlibeka 1989, 16]” jumlasini epigraf qilib qo'yilgan. Bu holat xuddi xalq dostonlarida epik she'r boshlanishidan oldin takrorlanadigan so'nggi gapga o'xshaydi. Masalan: “*...Do'st emas, nomard ekansan*”, – *deya so'ylab turgan joyi* [Malla savdogar, 25]” kabi. She'rning o'zi ham xalq qo'shiqlariga mos aytishuv





shaklida yaratilgan. Yigit savol so'raydi, ona javob beradi yoki yigit nola chekadi, ona dalda bo'ladi. Quyidagi she'r esa ohang jihatidan murojaat qo'shiqqa yaqin:

*Joning jon joyima tutashma, inim,
Ko'ngling menikiga o'xshashma, inim,
Shu suvday suluvni chin sevgan bo'lsang,
O'zim sovchi bo'lay, bo'shashma, inim*[Qutlibeka 2002, 10].

She'rda umumo'zbek xalqiga xos dangallik fazilati bilan bir qatorda, azaliy qadriyat sifatida qaraladigan sovchilik urf-odati ham namoyon bo'lgan. Tovushlar takrori esa she'r ohangdorligini ta'minlagan. Shoiraning "Enaman" she'ri baxshilarning do'mbira jo'rligida kuylaydigan epik qo'shiqlarini eslatadi:

*Jonidan jon uzib yurgan enaman,
"Enam" lasang tov ortidan kelaman.
Sen bolaning bir gaping bor, bilaman,
Ayt, ayama. Meni Xudoy ayasin*[Qutlibeka 2002, 12].

Xalqona samimiylik, jonkuyarlik fazilatlari bilan chizilgan o'zbek onasining mehrlil qiyofasi she'r badiiyatini oshirgan. Ko'ngil va o'zlik orasida qurilgan yo'l vazifasini o'tagan.

Qutlibeka Rahimboyevaning "Qo'shiq" deb nomlangan she'ri, chin ma'noda, Xorazm xalq qo'shiqlari kabi yoqimli jaranglaydi:

*Qizil gul do'yim-do'yim,
Shamola atar o'yin.
Ori yo'qmi beklardi
Shu guna bo'lar bo'yin?*[Qutlibeka 1997, 57]

She'rda folklorga xos barcha elementlar – ijtimoiy muammo, parallellizm, tovush ohangdoshligi, qisqa she'r tipi, shevaga oid so'zlar mavjud. Og'zaki ijodda, masalan, gul yoki bulbul obrazi bilan boshlangan qo'shiq, ko'p hollarda, xalqning orzu-o'ylari, dard-u hasratlarini ifodalayotgan bo'ladi. Ushbu she'r ham "ishqli ko'ngil" birikmasi ostiga vatan qayg'usini yashirgan. "Qizil gul" ramziy ma'noda ayol-qizlar ma'nosini ifodalaydi. "Shamol" esa yurt ahvoli haqida so'zlayotgan xabarchi. Lirik "men" bek yigit(lar)ni yovga bo'yin egmaslikka chorlaydi. Chunki shoira "Alpomish" dostonida Qaldirg'ochning akasiga qarata:

*"Qizil gulning sarg'aygani – so'lgani,
Mard yigitning uyalgani – o'lgani.*





Uch-to'rt kun bo'ldi qog'ozning kelgani,

Senday bo'larmi Qo'ng'irotda elning polvoni? [Alpomish 2018,71]” –

deb aytgan so'zlari Alpomishga qanchalik kuch bag'ishlaganini yaxshi biladi.

Xulosa. Umuman olganda, Qutlibeka Rahimboyeva folklor an'alarini hozirgi zamon she'riyatiga mohirona singdira olgan, individual uslubi bilan yangiliklar yarata olgan ruhiyati baland shoira. Ko'rib o'tganlarimiz shoira she'rlarining bir qismi bo'lib, uning lirikasida yana ko'plab folklor xususiyatlari aks etgan she'rlar mavjud. “Boychechagim boylandi”, “Zuhro o'tinchi”, “Tohirlar qayda?”, “Askar yigitga oq yo'l”, “Oftob enadan so'rovim”, “Diydor”, “Sizga o'xshamas”, “Haqboy buvaning sodda falsafasi”, “Qishning oxirlari” kabi qator she'rlari va dostoni shular jumlasidandir. Biz maqolaga qo'yilgan talabni hisobga olgan holda, barcha she'rlarni tahlilga tortmadik. Shoiraning folklor an'analari bilan bog'liq qolgan she'rlarini keyingi tadqiqot ishlarida davom ettirishni ma'qul topdik. Yuqoridagi mulohazalarga tayanib quyidagicha xulosaga kelish mumkin: Qutlibeka Rahimboyeva she'riyatida folklorga murojaatning uch xil usuli ko'zga tashlanadi. Birinchisi, xalq dostonlari, ertaklar va hokazolardagi mashhur obrazlarni she'rga olib o'tish (Go'ro'g'li, Alpomish, Barchinoy kabi). Bu esa shoira lirikasida talmeh san'atining ahamiyatini ham belgilaydi. Ikkinchisi, asosan, ramziy ma'no tashuvchi predmet-obrazilardan foydalanish (gul, shamol kabi). Uchinchisi, xalq epik she'rlari va qo'shiqlariga xos ohang, parallellizm, qaytariqlar, alliteratsiya, qisqa bo'g'inlarni ishlatish. Bu shartli ravishda qilingan tasnif bo'lib, ma'lum ma'noda, shoiraning ijodiy mahorati, lirikasining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Qutlibeka Rahimboyeva milliy qadriyat va an'alar ruhida yaratilgan she'rlari bilan hozirgi o'zbek adabiyoti rivojiga munosib hissa qo'shmoqda. Zero, badiiy adabiyotning asosiy maqsadlaridan biri insoniyatga o'zlikni anglatishdir. Bu maqsadga yetishda xalqning ko'p asrlik tafakkurini o'zida singdirgan badiiy asarlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Alpomish. Doston. Aytuvchilar: Umir baxshi Safarov, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li. – T.: Fan, 2018. – 368 b.
2. Ashurova G.N. Abdulla Oripov she'riyatida an'ana va badiiy mahorat (obraz, g'oya va tasvir): Filol. fan. nomz. disser. – Toshkent, 2008. – 154 b.
3. Eshonqulov J.S. O'zbek folklorida dev obrazining mifologik asoslari va badiiy talqini: Filol. fanlari nomz. disser. – Toshkent, 1996. – 158 b.





4. Eshonqulov J.S. Mif va badiiy tafakkur. – T.: Fan, 2019. – 246 b.
5. Mallayev N.A. Navoiy va xalq ijodiyoti. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1974. – 384 b.
6. Malla savdogar. Doston. Aytuvchi: Qahhor baxshi Rahimov. Yozib oluvchi: A. Ergashev.
7. Qutlibeka Rahimboyeva. Yuragimda ko'rganlarim: She'rlar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – 48 b.
8. Qutlibeka Rahimboyeva. Uzun kunduzlar: She'rlar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. – 52 b.
9. Qutlibeka Rahimboyeva. Uyg'onish fasli: She'rlar, doston. – T.: Yosh gvardiya, 1989. – 72 b.
10. Qutlibeka. Ozodlik: She'rlar. – T.: Yozuvchi, 1997. – 72 b.
11. Qutlibeka. Ko'ksimdagi Tangritog'. – T.: Sharq, 2002. – 64 b.
12. Qutlibeka. Qorako'zlarim. – T.: Adib, 2012. – 168 b.
13. Qutlibeka Rahimboyeva. Saylanma. – Toshkent, 2023. – 236 b.
14. Turdimov Sh. "Go'ro'g'li" dostonining genezisi va tadrijiy bosqichlari. – T.: Fan, 2011. – 240 b.
15. O'zbek xalq ertaklari. – T.: O'qituvchi, 1991. – 255 b.
16. www.ziyouz.com kutubxonasi.

